


I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT









Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-martida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 11 381,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 7,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 107,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,7 % ga yetdi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2023- yil	2024- yil	
	I. YAHM	9 884,7	11 381,3	107,1
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9 370,2	10 953,7	107,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	514,5	427,6	108,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9 370,2	10 953,7	107,1
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 944,0	2 170,3	103,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 035,0	3 428,2	110,5
	sanoat	2 333,4	2 558,4	107,7
	qurilish	701,6	869,8	119,6
	Xizmatlar	4 391,2	5 355,2	106,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	850,6	998,4	107,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	670,7	797,9	109,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 869,9	3 558,9	105,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 189,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

**Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM
hajmi va o'sish sur'atlari**





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 19,8 % ni, sanoat tarmog'i 23,4 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 48,9 % ni tashkil qildi.

**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,8	96,2
mahsulotlarga sof soliqlar	5,2	3,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20,7	19,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32,4	31,3
sanoat	24,9	23,4
qurilish	7,5	7,9
xizmatlar	46,9	48,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,1	9,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,2	7,3
boshqa xizmat tarmoqlari	30,6	32,5

**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 19,8 %), sanoatda – 107,7 % (23,4 %), qurilishda – 119,6 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 106,3 % ni (48,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,3 % (9,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,9 % (7,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,2 % dan (32,5 %) iborat bo'ldi.


**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida salbiy – 0,2 f.p.) va xizmatlar sohasi – 2,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 1,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.)ni tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida
tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**



2024-yil yanvar-mart oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2023-yil yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 107,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar ko'rsatish sohasida – 114,7 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 107,8 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



Yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 57,6 % ni tashkil qildi (2023- yilning yanvar-martida – 56,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

